

Uzbekistan Airways aviakompaniya faxriylarini yaqinlashib kelayotgan Mustaqillik kuni bilan tabrikladi

2026 28 Avgust

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi e'lon qilinganining 35 yilligi arafasida
"Uzbekistan Airways" Ajda aviakompaniya faxriylariga bag'ishlangan bayram tadbiri
bo'lib o'tdi.



Faxriylar kengashi vakillariga ko'p yillik mehnati, kasbga qo'shgan hissasi va fuqaro aviatsiyasiga sadoqati uchun minnatdorlik ramzi sifatida Boshqaruv raisi nomidan tashakkurnomalar hamda esdalik sovg'alari topshirildi. Shuningdek, aviakompaniya faxriylari va xodimlari uchun bayramona dasturxon tashkil etildi.





Faxriylarga esdalik sovg'alarini "Uzbekistan Airways" AJ Boshqaruv raisining ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinbosari Umid Xusanov topshirdi.